

Haqiqiy ijodkor adabiyotga emas, adabiy bir shavq ijodkorning qoniga kirib kelgachgina so'zning tasiriga tushadi. U endi o'z xayollarini ato qilingan so'z qudratiga taslim qiladi. Yoxud ato qilingan ilohiy qudratning o'zi uni boshqara boshlaydi. Bir uchligimda: "Ijod b'T "yo'rgakdan avval tekkan darddir, degandim.

Darhaqiqat, Yaratguvchi so'z oshig'iqa u hali bu dunyoga kelmay turiboq "shoir deya taqdiri azalga raqam chekadi. Bu gap qanchalik balandparvoz tuyulmasin, adabiyot haqidagi o'y-tushunchalarining negizi shunga borib taqaladi.

So'z, sher, shavq. Shoир mana shu uchchala qudrat bilan tirik. O'z so'zi faqat o'ziniki bo'lgan SO'Z egalarigina b'T " ShOIR. Sher b'T " faqat o'z holi bilan, o'zining tashbihlari bilan oqib keladigan po'ttana oqim.

Shavq b'T "bu nemat. U tilab olinmaydi, talab qilib ham. Shavq ato etiladi, yani chinakam shoирga shavq shavqlarning yaratguvchisi tomonidan iltifot qilinadi. Bu uchchala birlik shoирning "menini tashkil etib beradi.

To'grisini aytSAM, sheriyat qalbimga qachon kirib kelganini eslolmayman. Aqlimni tanibmanki gullarga qarabmi, suvlarga qarabmi, nimalardir deb, oddiy odamiy til bilan emas, hayratim tilida qofiyali so'zlab yurardim. Buni sezgan ota-onam, o'rtoqlarim: "Sher aytyapsanmi? O'zing yozdingmi? Qaerdan o'rganding? kabi savollarga ko'mib tashlardilar. Ilk hayratimni eslasam b'T " katta hovlimiz etagidagi ariqda qalqib-qalqib oqadigan sap-sariq behilar yodimga tushadi. Men bu haqda ko'p-ko'p sherlar yozdim.

Birinchi sheriymni 5-sinfda o'qib yurgan kezlarimda yozdim. Bir necha kunlik tayyorgarlikdan keyin qo'rqa-pisa, ming hadik ila adabiyot o'qituvchimiz qo'llariga tutqazdim. O'qituvchim o'qib ko'rib, quvonib ketdi. Mana shu quvonch menga umid va ishonch berdi. Shundan keyin maktabdagi yig'inlarda menga sher o'qitib, o'zları faxrlanadigan bo'ldilar. Bu esa menga kuch berar va o'z navbatida masuliyat yuklardi. Bora-bora binoyiday maktabning mashhur "shoirachasiga aylanib qoldim.

Keyinchalik Qo'qon shahrida maktablararo o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlarda, turli tadbirlar va olimpiadalarda sheriy chiqishlarim bilan ishtirok eta boshladim.

Birinchi sheriym o'sha kezlar "Lenin uchquni gazetasida bosilib chiqdi.

Beshinchi sinfga o'tganimizda Oliyaxon Ibrohimova degan qattiqqo'l o'qituvchi bizga ona tili va adabiyoti fanidan dars bera boshladi. Muallimamiz salohiyati yuksak, juda chuqr bilim egasi edilar. Uning g'oyatda jiddiy siymosi qarshisida hayratdan qotib o'tirardik. Oliyaxon opaning sharofati bilan maktabimizdan juda ko'p adabiyotchilar, jurnalistlar yetishib chiqdi. Keyinchalik o'zim ham matabda dars bera boshlaganimda angladimki, o'qituvchim bilimimni nafaqat qulog'imga, balki yuragimga ham quygan ekanlar. O'z faoliyatimda ustozimning dars uslublariga tayandim.

Shu o'rinda yana bir ustozim haqida to'xtalib o'tmasam bo'lmas. Men bu sirli-sinoatli adabiy maydonga kiribmanki, biror kun ham shoir Rauf Parfining ijodisiz yasholganim yo'q.

Esimda, matabni bitirar vaqtlarimiz... Orzular og'ushida osmonlarda uchib yuradigan paytlar... Shunday kunlarning birida Rauf Parfining "Tasvir deb nomlangan kitobi qo'limga tushdi. Chamanda 1973 yili edi. Bu kitob meni mutlaq sehrlab qo'ydi. Tunu kun mana shu sherlar ichra yashay boshladim. Misralarga tizilgan tashbihlardagi tub mano silsilalari, tasvirning yorqin va tiniqligi, ruhning ozodligi, tafakkurning bepoyonligi va ayniqsa, jon va ruhning bemurosa janglari meni tinch qo'ymas edi.

Fikrning zamzamalari ongimni, tafakkurimni, shuurimni ostin-ustun qilib yubordi. Nahotki, inson zakovati shunday qudratga ega, uning tasavvuri shu qadar beqiyos! Oddiy, hamma biladigan, har kuni ishlataidigan so'zlardan shunchalar mo'b Tjiza yaratish mumkin ekan-da, deb o'ylayman. Ichim yonadi, tomirlarimda hayratlar tug'yon uradi. Unga o'xshashlik, unga o'xshab yozish ishtiyoqi tinchlik bermaydi.

Tabiiyki, bunday holatlarda shoирning shaxsiyatiga qiziqish kuchayadi, uni bir bora bo'lsa ham ko'rish, ikki og'iz suhbat, yetti olamni jamlay olgan ko'zlariga boqish, qalam ushlagan barmoqlarini tomosha qilish ishtiyoqi har qanday muxlisning qalbida junbushga kelishi tayin. Men ilk marta ustozning ijodi bilan ro'baro' kelganimda ana shunday ahvolga tushganman. Va har doim ustozga o'xshab fikrlashga, yozishga harakat qildim. Bu ishni qanchalik uddaladim, buyog'i sherxonga malum.

Ilk kitobim "Qirqkokilligim deb nomlanadi. O'sha paytda "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sanati nashriyotining sheriyat bo'limi boshlig'i shoir Shavkat Rahmon edi. Azim Suyun hamda Muhammad Yusuflar muharrir bo'lib ishlardilar. Kitob chiqarish uchun ana shunday zabardast, qattiqqo'l ijodkorlarning g'alviridan o'tishing kerak bo'lar edi.

Bir kuni ushbu nashriyotda "Birinchi kitob ruknida "Osmon shunday yaqin nomli to'plam kitob tayyorlanayotganini eshitidik. Men ham qo'lyozmalarimni topshirdim. O'shanda o'z ijodlarini taqdim qilgan 72 nafar yosh ijodkorlarning ichidan 17 kishi tanlab olindi. "Tanlanganlar ichida men ham bor edim.

Aslida ijodkorning o'zidan ko'ngli to'lgan kuni bo'lmaydi. Chunki, ijod degani bu tinimsiz izlanish deganidir. Izlanishda bo'lgan odam esa hech qachon o'zidan qoniqmaydi.

Adabiyotsiz jamiyat bo'lmaydi. Adabiyotning o'zi mangu ibodatgohdir. Qolaversa, haqiqiy ijodkor faqatgina so'zning oldida bosh egadi. Adabiyotday ilohiy maydonni mayda, bachkana gaplar bilan aldash, bu b'T " so'zga xiyonat qilish demakdir. Xiyonat esa hamma zamonalarda ham kechirilmagan. Nodirabeginning jaholat kundasiga qo'yilgan aziz boshi oldida, Qodiriy hazratlarining munavvar ruhlari oldida, Cho'lpon va Usmon Nosirlar sajda qilib ketgan so'z mehrobi oldida faqat va faqat rost aytish kerak.

Kulsang kulgularing, yig'lasang-yig'ilaring rost bo'lishi, faqat o'zingniki bo'lishi kerak.

Aslida adabiyotning millati bo'lmaydi, ammo adabiyot millatning dunyoda borligini ko'ssatadigan hayot oynasidir. Indallosini aytganda, haqiqiy ijodkorning na millati va na yoshi bo'ladi. Ijodkorning chin va soxtasi bor, xolos. Buni ajratib olish uchun o'quvchining didini tarbiyalaydigan xolis tanqidchilik omon bo'lsa, bu ham muammo bo'lmaydi.

Darhaqiqat, mening ijodimda muhim o'rin egallagan Qo'qon shahridagi "Nihol adabiy to'garagi haqida aytib o'tsam. Bu to'garakni bizning davrimizda rahmatli Habibullo Sayid G'ani boshqarar edi. Shu to'garak faoliyati, undagi adabiy muhit bugun ham yuragimni orziqtiradi. Anvar Yunus, Komil Jo'ra, Azimjon Azizov, Dilbar Hamzaxo'jaeva, Nosir Zohid, Maqsuda Egamberdieva, Abdulatif Turdialiev singari ijodkorlar shu to'garakning ijodiy muhitidan bahramand bo'lganlar. Nazarimda, bugun shu singari to'garaklar va ulardagı ustoz-shogirdlik ananalariga putur yetgandek. Ustozlarga bo'lган ehtirom qaysidir manoda "lat yegandek... Men bugungi yoshlardagi shijoat, o'ziga ishonch va qatiyatni qadrilayman, hatto havas qilaman. Ammo... ushbu shaddodlik nazarimda o'z ijobji mohiyatini yo'qotib, surbetlikka yaqinlashib ketayotgandek. Bizning davrimizda sher yozish, uni chop etish va kitob chiqarishning o'z manaviy mezonzlari bo'lar edi. Qalbimizdan joy olgan satrlari ila ixlosimizni qozongan shoirlar bilan hayotda yuzma-yuz kelganda hatto o'zimizni yo'qotib qo'yar darajada hayajonlanar edik. Ularga nisbatan odobsizlik bo'lmasligi uchun tirishardik. Ustozlarning nazariga tushish biz uchun mo'b Tjiza edi. Afsus, bugunning yoshlari hali ustozlar oldida polapon bo'la turib, uchirma bo'lishga ulgurmasdan nazardan qolmoqdalar. Va eng achinarlisi, nazardan qolishdan aslo qo'rqlayaptilar ham. Navoiy ko'chasi, 30-uyda joylashgan nashriyotlarning har bir zinasidan ming bir hayajon va hadik bilan to'xtab, o'ylab chiqar

This is not registered version of TotalDocConverter

edili. Ustozlar so'zlarini qish boyi mazmunlari o'tish bilan barobar edi. Chunki ustozga bo'lgan ehtirom, ustozdan shogirdga yetadigan fayzi-futuh, ustozning roziligi, bu hech narsa bilan almashib bo'lmaydigan manaviy xazinadir.

Yana shu o'rinda yuragimni og'riqqa solgan bir mavzuni aytib o'tmasam bo'lmash. Yoshlarimizning so'zga bo'lgan etiborsizligi, ilohiy, yuki og'ir so'zlarni bepisand ishlatajotganini ko'rib cho'chib ketaman. Ajabo, "o'lim, "g'assol, "ajal, "kafan, "tobut, "qabr "mozor" singari so'zlar ayrim yoshlar uchun bemalol aytса bo'ladijan oddiy jumlalarga, so'zbozlik, shaklbozlikka aylandi.

Men bu mahmadonalik, nazmbozlik ortida qanday fojialar yotajagini o'z hayotim davomida bir necha bor guvohi bo'ldim. "Otam meni ko'mar ehtimol, degan Muhammad Yusufning dog'i, "Men shubhasiz parchalanaman, deya o'z taqdirdan bashorat qilgan Shavkat Rahmonning taqdiri, Azam O'ktamning "Bitta men yo'q bo'lsam ne bo'pti axir, O'zbekning kamayib qolmas shoiri, degan satrlari ularning taqdirini belgilab bermadimi?!

Bir faylasuf "o'yashdan avval, o'yla! deb bejiz aytmagan. Ammo so'zlab turib ham o'ylamaydigan, o'ylamay turib: "Qarg'a meni, otajon, qarg'ab ajalimni chaqirib bergin, deb yozayotgan yosh qalamkashlarning ertangi kuni uchun vahimaga tushasan. Yaqinda bir qizaloqning "sher mening gunohim, degan satrini eshitib tanbeh berdim. Negaki, bugunning yoshlari ular yaratayotgan asarlar oldida biz kechagi avlod ham masulmiz. Chunki ijod ahlining bir-biriga begonasi yo'q. Qolaversa, jumlai insoniyat shayx Sadiy aytganlaridek: "Azoj yakdegarand.

Mening "Ehtimol, bir so'zning tig'i b'T" taqdirdir degan satrlarim bu mening shaklim emas, balkim mazmunimdir. Mazmun esa tamomila qalbnikidir. Qalb esa bu ezgu tuyg'ularning saltanatidir. Shunday ekan, qalbimizni, go'zal tuyg'ularimizni o'quvchilarimizga go'zal holatda yetkazaylik. Ularga yorug' kayfiyatlar ulashaylik. Yozganlarimizni o'qiganlar saratonning issig'ida bir hovuch suv ho'plagandek yurasinlar. Har qanday shaklbozlik, nazmbozlik, mahmadonalik bizning qonimizga, qadriyatlarimizga yotdir.

Shu o'rinda yana bir narsani aytmoqchi edim. Qadim zamonlardan boshlab to yaqin kunlargacha shoirlarning bir-biriga sheriy maktub yozish ananalari bo'lgan. Jumladan, Uvaysiyning Nodiraga, Furqatning Muqimiyya, Sobir Abdullaning Charxiy, Habibiy domlalarga yozgan maktublari... Bu maktublar ijodkorni o'ziga xos ijodiy munozaraga chorlaganligi bilan odamni sog'intiradi. Oilam haqida shuni aytishim kerakki, men bu borada nihoyatda baxtliman. Adabiyotni, so'zni qadrlagan xonadonda dunyoga keldim. Mening qonimdagи sher zavqi otamning "oq bilak oyim anjonlik termasini dutor chalib, maroq bilan xirgoyi qilishlaridan boshlangandir, ehtimol. Yozmishlarimning xalqonaligi, xalq ohanglariga hamohangligida otamning hissasi bor. Bir umr rahbarlik lavozimlarining masuliyatl ishlaridan ortib, biz bolalari yuragiga adabiyot va sanat dunyosiga muhabbat cho'g'ini solaolgan otamning samimiy va o'ktam chehralarini, zavq va hayrat omuxtalashgan dilbar qalbini ko'raman. Ammo ruhimda tasavvuf va unga moyillikni tuyganimda, onamning munis, masum tarovat balqigan nurli siymolari menga ilhom baxsh etayotgandek tuyuladi. Darvoqe, onam haqlarida qalbimda qolgan aziz xotiralarimning barchasida onamning oshiq qalbları, undagi bitmas-tuganmas ixlos porlab turadi. Onam haqiqiy oshiq qalb sohibasi edilar. Bu oshiqlik Mashrabning qissalarini o'qiganda, G'av sul Azam hazratlarining tazkiralarini aytildi ganda yanada ayon bolardi. Bu oshiqlik taqdiri azalning nogahoniy zarbalariga yo'liqqan mahallarida ro'y-rost bo'y ko'sstar, Yaratganga bo'lgan bemisl ishqqi tufayli onam har qanday fojiani chidab bo'lmas bir taslimlik bilan qarshilar edilar. Hatto, 19 ga kirgan opamni vahshiylarcha o'ldirishganida ham, undan olti oy o'tib yetti yoshlik ukamning fojiali o'limida ham, sochlarni yulib faryod ko'tarish o'rniga bu qismatni ich-ichdan nurab turib, chinakam sabr bilan kutib olgandi. Onam hayotda har qanday yomon vaziyatdan ham o'ktamlik bilan chiqib keta olishdek buyuk saboqni menga meros qilib qoldirganlar. Onamning "Mahluqidan shikoyat, Xoliquidan shikoyatdir, degan naqlari menga hech qachon, hech narsadan nolimaslikni o'rgatgan. Ruhimdagи oshiqlik kayfiyati so'zga, sherga, hayotga, yashash va yashnatishga oshiqlik menga onamdan qolgan buyuk meros, tuganmas xazinadir. Qolganlari esa hayot bergen saboqlardir.

Farzandlarimga kelsak, bir uchligimda "Ey nodon, bolang aytganining emas, qilganining qiladi, deb takidlaganimdek, sanatkoring bolasi sanatkor, hunarmandning bolasi hunarmand bo'ladi, chunki ular ota-onasining qilganini qiladi. Shoир esa aytadi, shuning uchun shoirning farzandi shoir bo'lmaydi. Ammo farzandlarim sher yozmasalar-da, qalblarining masumligi hayotlarini tarbiyat qilib turadi.